

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH

**NOTARIAT SOHASINI BOSHQARISHNING TASHKILY-HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
(PhD)

Ashurov Dilshod Rustamovich

Notariat sohasini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish... 4

Ashurov Dilshod Rustamovich

Improvement of the organizational and legal basis for the management of the notary sphere 27

Ashurov Dilshod Rustamovich

Совершенствова́ние организа́ционно-право́вых основ управления
нотариальной сферой..... 31

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....57

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH

**NOTARIAT SOHASINI BOSHQARISHNING TASHKILY-HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu1137-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xakimov Raximjon Rasuljonovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nematov Jo‘rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, professor

Raxmonov Akmal Ergashevich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat siyosati va
boshqaruvi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 21-iyun soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1401-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-iyunda tarqatildi.

(2025-yil 9-iyundagi 25-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M.Xashimhonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisining o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

F.B.Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R.Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda notariat inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, huquqiy nizolarning oldini olish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda muhim o'rin tutuvchi institut sifatida rivojlanmoqda. Xalqaro huquqiy hujjatlar va tashkilotlar hisobotlariga ko'ra, notariat sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish, uni zamonaviy talablar darajasida tashkil etish borasida dunyoda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Statista Research Department tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra, global yuridik xizmatlar bozorining hajmi 2024-yilda 786,51 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 2029-yilga kelib bu ko'rsatkich 981,08 milliard AQSH dollariga yetishi kutilmoqda. Bu sohada yillik o'rtacha o'sish sur'ati 2024-2029-yillar davrida 4,52 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda¹. Xalqaro notariuslar ittifoqi (UINL)ning 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 90 dan ziyod davlatlari mazkur ittifoqqa a'zo bo'lib, ularda notarial harakatlarning 76 % idan ortiq qismi elektron shaklda amalga oshiriladi². Bu esa o'z navbatida "Servis davlat" konsepsiyasini amalga oshirishda notariatning roli tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Jahonda xalqaro darajada elektron notarial xizmatlarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, turli mamlakatlar va mintaqalar o'rtasida notarial amaliyot va standartlarni uyg'unlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashda professional notariuslarning o'rnini aniqlash, biznesni qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitining barqarorligi va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda notariuslarning rolini oshirish, notarial tizim uchun kadrlar tayyorlash, notariat sohasiga o'zini o'zi tartibga solish tamoyilini izchil joriy etish, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan notarial hujjatlarni huquqiy baholash, raqamli va ekologik notarial xizmatlarni qo'llab-quvvatlash va ushbu sohalarga investitsiyalar kiritishda ustuvorlik berish bilan bog'liq masalalar muhim tadqiqot yo'nalishlari sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat boshqaruvi sohasida huquqiy xizmatlarni takomillashtirish, aholiga qulay sharoitlar yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy mazmuni Taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida aholiga notarial xizmat ko'rsatish sifati tubdan yaxshilanmoqda, sohada raqamlashtirish va qonuniylik darajasi yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadida "... huquqiy yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va "yagona darcha" tamoyili asosida foydalanishni ta'minlash hamda notariat institutiga oid barcha qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va yagona qonunga birlashtirish vazifalari belgilangan"³. Notariat sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va yagona tizimga solish, fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlarning huquqiy

¹ <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/legal-services-market>

² <https://www.uinl.org>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

asoslarini mustahkamlash hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi vazifalarni bajarish ushbu sohada kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratini oldimizga qo‘yimoqda.

So‘nggi yillarda yurtimizda notariat institutining jismoniy va yuridik shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishdagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. Bosh qomusimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari, xususan, qonunlardagi noaniqliklarning inson foydasiga hal bo‘lishi, inson huquq va erkinliklari daxlsizligi, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi, bevosita amal qilishi hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi, insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta‘sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi kabi muhim normalar belgilandi⁴. Yangi konstitutsiyaviy qoidalar asosida malakali yuridik yordam, xususan, notariat instituti faoliyatini huquqiy tartibga solishga oid qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish sharoitida shu kabi ilmiy tadqiqot ishlari juda muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda notariat institutini rivojlantirish yo‘lida qilinayotgan muhim islohotlar natijasida aholiga notarial xizmat ko‘rsatish sifati tubdan yaxshilanmoqda, sohada qonuniylik ta‘minlanishi darajasi yangi sifat bosqichiga ko‘tarilmoqda. Birgina, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-sentyabrdagi 5816-sonli Farmoniga⁵ asosan, 2020-yil 1-yanvardan davlat notarial idoralarini bosqichma-bosqich nodavlat notarial idoralar etib qayta tashkil qilish belgilandi.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda «Odamlar emas, hujjatlar harakatlanadi» degan tamoyil asosida fuqarolarning ovora va sarson bo‘lishini oldini olish maqsadida “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali tegishli notariusga onlayn navbatga yozilishi, notarial harakatlar yuzasidan maslahatlarga va savollarga javob olish uchun @notariusmaslahatibot telegram boti orqali murojaat etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida O‘zbekiston Notarial palatasi 2021-yil 3-dekabr kuni Xalqaro Notariuslar Ittifoqiga a‘zo bo‘ldi.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadida “Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish” deb belgilangan bo‘lib, unda bepul huquqiy yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanishni ta‘minlash hamda notariat institutiga oid barcha qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va yagona qonunga birlashtirish vazifalari belgilangan”⁶.

⁴ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

⁵ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.09.2019-y., 06/19/5816/3723-son; 25.11.2020-y., 06/20/6118/1562-son

⁶ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-sentabrdagi PF-5816-son Farmoni bilan faol va qonun doirasida faoliyat yuritayotgan notariuslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qonun va normalarga rioya etgan holda aholiga yuksak saviyada huquqiy xizmat ko‘rsatayotgan notariuslarni rag‘batlantirib borish, notariat sohasida O‘zbekiston amaliyotini xorijga olib chiqish orqali mamlakat imidji yaxshilanishiga hissa qo‘shish maqsadida O‘zbekiston Notarial palatasi tashkil etildi.

Notariat instituti faoliyati va uning huquqiy maqomi qonun ustuvorligi, konstitutsiyaviy prinsiplari, qonun oldida tenglik va fuqarolarning huquqlari kafolatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu bois, notariat institutining huquqiy tabiatini tadqiq etish, ularning faoliyatiga oid mexanizmlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish asnosida O‘zbekistonda notariat institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va bu boradagi qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), “Notariat to‘g‘risida”gi (1997), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1999), “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son (2022), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son (2023), 2021 – 2025-yillarda “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6181-son (2021) “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga oid masalalarni ko‘rib chiqishning yangilangan tartibini belgilash to‘g‘risida”gi PF–6185-son (2021), “O‘zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5816-son (2019) farmonlari, “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4270-son (2021), “Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3741-son (2021) qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda notariat institutining ayrim jihatlari M.Karimova⁷, I. T.Mamajonova, D.D.Nurumov, O.Okyulov, N.K.Xattobov, B.A.Narimanov, R.J.Ro‘ziyev, M.Karimova, J.Ne‘matov, V.H.Davlyatov, G.Mamaraimova, T.Sultonova, X.Rahmonqulov, I.B.Zokirov,

⁷ Mazkur ilmiy ishlarning to‘liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

N.I.Ismoilov, F.Y.Shodmonov, S.S.Hamroyevlar va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Xususan, T.S.Sultonovanning ilmiy izlanishlarida O'zbekistonda notariatning tarixi ilk marotaba yoritilganligi va uning taraqqiy etish davrlari, notarial harakatlarni amalga oshirishda notariuslar tayanishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillar va ularni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarda notariat institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari I.N.Kashurin, V.V.Argunov, Ye.A.Borisova, L.L.Shapovalova, A.V.Ignatenko, D.A.Yerkenov, G.K.Kunanbayeva, P.P.Sergun, G.V.Fadeeva, L.V.Sayenko, A.M.Aznayev, O.A.Timoshkina, A.Ye.Chernikova, G.Romanovskiy, A.Ye.Shapkina va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Yevropa va okeanorti mamlakatlaridan V.V.Smiters, B.Soaes, E.Amaral, P.Pott, P. de Lacerda, L.J. Smit, M.T.Prokich, N.Koks, S. Roshu, Osiyo davlatlaridan S.O.Adinigraxa, D.Narahab, M.L.Klozen, C.O.Yovanovich, N.Koks, Osiyo davlatlaridan S.O.Adinigraxa, D.Narahab, M.L.Klozen, C.O.Yovanovich kabi olimlar notariat institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etishgan.

Garchand ushbu olimlarning ilmiy izlanishlarida notariat institutining tashkiliy-huquqiy asoslari u yoki bu darajada tadqiq qilingan bo'lsa-da, konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq nuqtayi nazaridan notariat instituti faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi va xalqaro standartlarni tahlil qilgan holda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini takomillashtirish masalalari yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

O'tgan yillarda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, notariat instituti faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari bilan bog'liq munosabatlarning serqirra ekanligi, shuningdek, ushbu sohaga oid zamonaviy yondashuvlar asosida mazkur tadqiqot ishi tayyorlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot maqsadi O'zbekiston Respublikasida notariat sohasini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va va ushbu sohadagi qonun hujjatlari hamda huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

notariat instituti tushunchasi, mohiyati va huquqiy tabiatini tahlil qilish;
notariat institutining evolyutsiyasi va rivojlanishi tendensiyalarini tadqiq etish;

O'zbekistonda notariat instituti huquqiy asoslarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil etish;

notariat institutining ma'muriy huquqiy maqomini o'rganish;
notariat faoliyatini tashkil etish bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlarini aniqlash;
notarial faoliyatning huquqiy kafolatlarini tadqiq etish;

notarial idoralarda davlat xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini takomillashtirish istiqbollarini ilgari surish;

notarial palataning tashkil etish va faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilish;

notariatning huquqiy faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlik va internotarial tizimlarni shakllantirish istiqbollarini ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida notariat sohasini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasida notariat instituti faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro umume'tirof etilgan standartlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda Konstitutsiyaviy huquq, Ma'muriy huquq va Qiyosiy konstitutsiyaviy huquqda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tizimli va funksional tahlil, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik, nazariy modellashtirish, induktiv va deduktiv tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat notarial idorasi notariusini lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlovni xolisona o'tkazish va xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini munosib nozodlarga berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi tarkibiga Notarial palata vakillari va notariuslarni kiritish zarurligi asoslantirilgan;

Notarial palata Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladigan hududiy boshqarmalari bilan birgalikda notariatning yagona o'zini o'zi boshqarish tizimini tashkil etishi, uning vazifalari va vakolatlariga o'xshash vazifalar hamda vakolatlarga ega bo'lgan boshqa tashkilotlarni tashkil etishga yo'l qo'yilmasligi asoslab berilgan;

Notarial palata raisi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taqdimnomasiga binoan Notarial palata konferensiyasi tomonidan, ushbu konferensiya saylagan Notarial palata boshqaruvi a'zolari orasidan besh yil muddatga saylanish tartibini joriy etish zarurligi asoslantirilgan;

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning faoliyati tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplash maqsadida Notarial palata huzurida Kompensatsiya fondi tashkil etilishi zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yuridik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida "Notariat huquqi" yo'nalishi bo'yicha magistratura mutaxassisligini joriy etish zarurligi asoslantirilgan;

Notarial palataning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar uchun majburiy ekanligi asoslab berilgan;

davlat notarial idorasi notariusining yordamchisini ishga qabul qilishda O‘zbekiston Respublikasi Notarial palatasining tegishli hududiy boshqarmasi bilan kelishilgan holda uni tavsiya qilgan notarius tomonidan amalga oshirish tartibni joriy qilish zarurligi asoslab berilgan;

notariat institutining tabiati, xususiyatlari, yetarlicha aks ettirilmaganligidan kelib chiqib, “Notariat” fenomenining mualliflik ta’rifi ishlab chiqilib, ilmiy va amaliy qo‘llash uchun taklif etildi;

notariat institutini raqamlashtirishga oid qonunchilik bazasi tahlil etilib, “Notariuslar tomonidan elektron raqamli imzo va videokonferensaloqa orqali notarial harakatlarni amalga oshirishning ma’muriy reglamenti” ishlab chiqildi;

notariat institutining funksiyalari, prinsiplari va modellariga oid ilmiy-nazariy yondashuv ilgari surildi;

notariat sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash maqsadida Notarial palata huzurida “Ekspertlar guruhi” nizomi ishlab chiqildi;

O‘zbekiston Respublikasida notariat sohasida o‘zini o‘zi boshqarish tizimini joriy qilish va rivojlantirish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o‘zaro tahlil qilingan, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan notariat institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda Konstitutsiyaviy huquq, Ma’muriy huquq, Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq, Konstitutsiyaviy huquqning ilmiy-amaliy muammolari fanlarini o‘qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasida notariat faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, notariat sohasi subyektlari faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

davlat notarial idorasi notariusini lavozimiga tayinlash bo‘yicha tanlovni xolisona o‘tkazish va xususiy notarial faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini munosib nomzodlarga berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi tarkibiga Notarial palata vakillari va notariuslarni kiritish zarurligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 3¹-moddasini yangi tahririni ishlab chiqishda inobatga olingan. (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqoti institutining 2024-yil 27-noyabrdagi 3/08-237-son ma’lumotnomasi). Ushbu

taklifning joriy qilinishi notariuslar korpusini xolisona shakllantirish bo'yicha tanlov o'tkazish va xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini munosib nomzodlarga berish uchun sharoit yaratgan;

Notarial palata Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladigan hududiy boshqarmalari bilan birgalikda notariatning yagona o'zini o'zi boshqarish tizimini tashkil etishi, uning vazifalari va vakolatlariga o'xshash vazifalar hamda vakolatlarga ega bo'lgan boshqa tashkilotlarni tashkil etishga yo'l qo'yilmasligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 22⁴-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan. (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqoti institutining 2024-yil 27-noyabrdagi 3/08-237-son ma'lumotnomasi) Ushbu taklifning joriy qilinishi notariat institutiga o'zini o'zi tartibga solish mexanizmini joriy etilishiga xizmat qilgan;

Notarial palata raisi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taqdimnomasiga binoan Notarial palata konferensiyasi tomonidan, ushbu konferensiya saylagan Notarial palata boshqaruvi a'zolari orasidan besh yil muddatga saylanish tartibini joriy etish zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 22⁶-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan. (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqoti institutining 2024-yil 27-noyabrdagi 3/08-237-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi notariuslar hamjamiyatining manfaatlarini qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati organlarida ifoda etilishining tashkiliy-huquqiy mexanizmini mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning faoliyati tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash maqsadida Notarial palata huzurida Kompensatsiya fondi tashkil etish zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 22⁷-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan. (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqoti institutining 2024-yil 27-noyabrdagi 3/08-237-son ma'lumotnomasi) Ushbu taklifning amalga oshirilishi inson huquqlarini himoya qilish mexanizmini mustahkamlanishi va fuqarolarning notariuslar professional xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshirishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (3 ta respublika va 4 ta xorijiy nashrlarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, sohada mavjud amaliy, huquqiy va nazariy muammolar, milliy va xorijiy olimlar tomonidan ularning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilganligi, aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Notariat instituti talqinining nazariy-metodologik jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida notariat instituti tushunchasi, mohiyati va huquqiy tabiati, prinsiplari, funksiyalari, manbalari, institutning evolyutsiyasi va rivojlanishi tendensiyalari, O‘zbekistonda notariat instituti huquqiy asoslarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tadqiq qilingan.

Mazkur bobda ko‘rsatib o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida “yuridik yordam” instituti mustahkamlandi va “fuqarolik jamiyati institutlari”ga konstitutsiyaviy maqom berildi.

Tadqiqotchi fikricha, mazkur rahbariy va metodologik ahamiyatga molik konstitutsiyaviy qoidalar asosida yaqin istiqbolda mamlakatimizning butun qonunchilik tizimi modernizatsiya qilinadi. Ushbu jarayonda notariat instituti, shu jumladan Notarial palataning faoliyatini tartibga solishga yo‘naltirilgan qonunchilik hujjatlarida ularning huquqiy maqomini mustahkamlovchi, faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishga jiddiy hamda alohida mas‘uliyat bilan yondashish lozim bo‘ladi.

Muallifning fikricha, notariat instituti fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlaydigan muhim institutlardan biri hisoblanadi. Muallif notariatni ma‘lum bir davlatning amaldagi qonunchiligida belgilangan hollarda va tartibda davlat nomidan notarial harakatlarni professional asosda amalga oshiradigan maxsus vakolatli organlar tizimi sifatida ta‘riflaydi.

Dissertant qayd etishicha, notariat dualistik xarakterga ega, sababi u xususiy va ommaviy huquqlar konvergentsiyasi natijasida o‘z mohiyatini ko‘rsatadi. Bu holatda notarius bir vaqtning o‘zida ham davlatning xohish-irodasini ifoda etuvchi vakolatli vakili, ham huquqiy munosabatlar subyektlarining mustaqil yuridik konsultanti sifatida faoliyat yuritadi.

Muallifning ko‘rsatishicha, notariat instituti tushunchasi ostida: fuqarolar, yuridik shaxslar va umuman jamiyatning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi davlat funksiyasini bajaradigan organ tizimi; fuqarolik munosabatlarining barqarorligini ta‘minlovchi huquqiy institut; hamda notarial ish yuritish masalalarini o‘rganuvchi fan tushuniladi.

Tadqiqotchining tadqiqotlariga ko‘ra, notariat institutining huquqiy tabiati notariat – bu jamiyatda yaratilgan hodisa emas, balki jamiyat ehtiyojlari asosida vujudga kelgan institutdir. Demak, notarius hukumatning o‘ziga emas, balki

jamiyatga yuqori sadoqat tuygʻusiga ega boʻlgan kishi boʻlishi kerak, chunki bu institut davlat amaldori boʻlib, notarius oʻz majburiyatlarini bajarishda xolislik va betaraflik qadriyatlariga ega boʻlishini taqozo etadi.

Dissertant taʼkidlashicha, notariat institutining asosiy funksiyalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi: fuqarolarning manfaatlarini huquqiy himoya qilish; huquqlar va faktlarni tasdiqlash; nizolarning oldini olish; bitimlarni ishonchini taʼminlash; odil sudlovga koʻmaklashish; qonun ustuvorligini taʼminlashga koʻmaklashish; maslahat va huquqiy yordam koʻrsatish; hujjatlarni toʻplash va saqlash.

Muallifning koʻrsatishicha, notariat faoliyatining tamoyillari oʻzaro bogʻliq va asosli tizimni tashkil etadi, har bir tamoyil boshqa tamoyilning kafolati boʻlib xizmat qiladi. Notarial faoliyat qonuniylik, xolislik, notarial harakatlar siriga rioya qilish, oshkoralik, inson huquqlarini hurmat qilish, mustaqillik va boshqa tamoyillarga asoslanadi.

Tadqiqotchining fikricha, notariat institutining evolyutsiyasi bir nechta faktorlar: vaqt, yangi ijtimoiy munosabatlar hamda huquqiy asoslarning shakllanib, takomillashib borishi kabi faktorlar taʼsirida shakllangan. Muallif notariat institutining rivojlanish tarixini ilk davlatchilik davridan boshlab tahlil qiladi.

Dissertant aniqlashicha, notariatning kelib chiqish vatani Qadimgi Rim imperiyasi hisoblanadi. Qadimgi Misr, Vavilon, Soʻgʻdiyonda ham notarial funksiyalarni bajaruvchi sohalar mavjud boʻlgan. Shuningdek, islom huquqida “yozuvchi (kotib)” instituti notariatning funksiyalarini bajargan.

Muallifning koʻrsatishicha, Oʻzbekistonda notariat institutining huquqiy asoslari shakllanishi va rivojlanishi uch bosqichni oʻz ichiga oladi: 1991-2009 yillar, 2010-2016 yillar va 2017-yildan hozirgacha. Har bir bosqich oʻziga xos huquqiy hujjatlar qabul qilinishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotchining fikricha, notariat institutining huquqiy tabiatini tadqiq etishda xalqaro huquq subyektlari muhim rol oʻynaydi. Xalqaro xususiy huquq boʻyicha Gaaga konferensiyasi (XXHGK) shu nuqtai nazardan muhim institut hisoblanadi. Muallif taʼkidlashicha, 2020 yilning mart oyida Oʻzbekiston Respublikasi Xalqaro xususiy huquq boʻyicha Gaaga konferensiyasiga aʼzo boʻldi.

Dissertantning aniqlashicha, lotin tipidagi notariat institutining oʻnta imperativ qoidalar mavjud boʻlib, ular: ishingizni qadrlang; eng arzimas shubha harakatlaringizda ikkilantirsayam, oʻzingizni qoʻlga ola biling; haqiqatni ardoqlang; aql bilan ish tuting; ishtiyoq bilan oʻrganing; vijdoningiz bilan maslahatlashing; adolatga yoʻl boshlang; qonunga rioya qiling; ishingizga oʻzingni munosib tuting; vazifangiz odamlar oʻrtasida nizo kelib chiqmaslik kerakligini unutmang.

Tadqiqotchining fikricha, Oʻzbekiston Respublikasi “Notariat toʻgʻrisida”gi Qonunida notariat institutining prinsiplari haqida aniq belgilab, tasniflab chiqilmagan. Qonundan notariusning mustaqilligi va betaraffligi; notarial harakatlarning maxfiyligi; notarius tomonidan yuritiladigan til kabi asosiy tamoyillar belgilangan, xolos. Muallif prinsiplarni qonunchilikda aniq belgilab qoʻyishni tavsiya etadi.

Dissertantning xulosasiga koʻra, notarius faoliyatining tamoyillari erkin lotin notarius tamoyillari asosida qurilgan boʻlib, notarius faoliyati prinsiplari faqat tor,

rasmiy ma'noda notarial harakatlarni amalga oshirish bilan cheklanib qolmasligi haqida yagona fikrga kelingan. Notarius mustaqil, xolis va professional bo'lishi, betaraflik tamoyiliga rioya qilishi lozim.

Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy sharoitda notariat instituti raqamlashtirish jarayonidan o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan "E-notarius" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi yaratilgan hamda elektron tizim yordamida qator qulayliklar yaratilgan. Bu notarial faoliyatni amalga oshirishning samaradorligini oshirish va fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchining fikricha, hozirgi kunda xorijiy davlat amaliyotida notariat institutining prinsiplari faqat tor, rasmiy ma'noda notarial harakatlarni amalga oshirish bilan cheklanib qolmasligi haqida yagona fikrga kelingan. Notariusning bitim tuzishda vositachi va tomonlarning maslahatchisi vazifalarini bajarishi kabi roli tobora rivojlanib bormoqda.

Tadqiqotchining xulosasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini takomillashtirish, notariuslarning kasb faoliyatini mustahkamlash va ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish, elektron notariatni rivojlantirish, zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun innovatsion yechimlardan foydalanish kelajak istiqbollarini belgilaydi.

Dissertatsiyaning **"Notariat institutining faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlari: qiyosiy-huquqiy tahlil"** deb nomlangan ikkinchi bobida ushbu institutning huquqiy maqomi, notarial faoliyatni tashkil etish bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari, mazkur faoliyatning huquqiy kafolatlari masalalari o'rganilgan hamda takliflar bo'yicha suddagi ishlar va olimlar fikrlari tahlil qilingan (S.Kpavchenko, S.Shmidt, K.T.Murtazina, M.Safoev, Li Ti Tu Xang va boshqalar).

Tadqiqotchining fikricha, notariat institutining huquqiy maqomi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, notarius o'z vazifalarini bajarib, bitimlarni tasdiqlash orqali fuqarolarning huquqlarini ta'minlashga yordam beradi. Muallif ta'kidlashicha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida notariat instituti haqida to'xtalmagan bo'lsa ham, u bir qancha huquq sohalari tarkibidagi normalar yig'indisi hamda notarial harakatlarni amalga oshirish qoidalarining kompleks yig'indisidan iborat.

Dissertantning ta'kidlashicha, "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasidagi "da'vat etilgan" so'z birikmasi boshqa qonunlarda deyarli uchramaydigan izoh talab shaklda qo'llanilgan. Tadqiqotchi "da'vat etilgan" so'z birikmasini "maqsadida tashkil qilingan" so'zlariga almashtirish notariat huquqiy institutini mohiyatini ko'proq ochib berishga xizmat qiladi deb hisoblaydi.

Muallifning ko'rsatishicha, hozirgi vaqtda notariusning ikkita asosiy tizimi mavjud – lotin va anglo-sakson turlari. Lotin notariati tizimida notarius ikki fazilatda harakat qiladi: birinchidan, davlat nomidan notarial harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan davlatning mustaqil vakili sifatida, ikkinchidan, bir vaqtning o'zida notarial harakatlarni amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Tadqiqotchining aniqlashicha, xorijiy amaliyotda, xususan Germaniya,

Fransiya, Shveysariya, Latviya, Ispaniya, Yaponiya, Avstriya kabi mamlakatlarda notariat instituti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Muallif Avstriya tajribasini alohida o'rgangan bo'lib, bu davlatda elektron arxiv tizimiga katta e'tibor qaratilgan. Rasmiylashtirilgan notarial hujjatlarni saqlashda joy tejalishi, imzolangan notarial hujjatlarni tez va oson topilishida vaqt tejalishi, shuningdek hujjatlarning lokallashuvi ta'minlangan.

Dissertant ta'kidlashicha, O'zbekistonda notariat faoliyatini tashkil etishda ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda adliya organlari, Notarial palata, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlari muhim rol o'ynaydi. Muallif ta'kidlashicha, davlat va xususiy notariuslar faoliyatini tashkil etish o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, ular mehnat munosabatlari, moliyalashtirish, javobgarlik, faoliyatni to'xtatish va boshqa masalalarda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchining fikricha, "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 81-moddasida nazarda tutilgan xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusni hisobga qo'yish va hisobdan chiqarish tartibi ortiqcha byurokratiya hisoblanadi. Uning o'rniga, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning faoliyat olib borish manzilini litsenziyalar reestriga qaydlar kiritish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Muallifning ko'rsatishicha, notarial harakatlarni amalga oshirishda xaddan tashqari ko'p masalalarni hal qilish vazifasi yuklatilgan. Kommunal to'lovlardan hamda soliq majburiyatlaridan arzimagan qarzdorlikni mavjud bo'lishi ham notarial harakatlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi, bu esa notariat institutining asl maqsadiga muvofiq emasligini ta'kidlaydi.

Dissertantning tahlilicha, elektron tizimlarda texnik nosozliklar bo'lganda, axborot almashuvi kurerlik xizmati orqali amalga oshirilishi korrupsion va byurokratik to'siqlarni yuzaga keltiradi. Texnik nosozliklar bo'lganda so'rovlarni ko'rib chiqib, javobini olishga 10-15 kunlab vaqt ketishi fuqarolarga qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Tadqiqotchining fikricha, notarial harakatning kafolatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular huquqiy, tashkiliy, mulkiy va sud kafolatlariga bo'linadi. Huquqiy kafolat notarial faoliyatning qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi, tashkiliy kafolat jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishda notariatning o'rnini, mulkiy kafolat notarial sirning saqlanishi, sud kafolati esa sud orqali himoyalaniшни nazarda tutadi.

Muallifning tahlilicha, notariuslarning malaka oshirish kurslarida ishtirok etishga mas'uliyatsiz munosabatda bo'lish holatlari uchraydi. Shu sababli, malaka oshirish sinov imtihonini topshirmagan notariuslarga nisbatan litsenziyaning amal qilish muddatini to'xtatib turish talabini belgilash maqsadga muvofiq.

Dissertant qayd etishicha, «Notariat to'g'risida»gi Qonunda notariuslarning kasb etikasi qoidalarini kim tasdiqlashi aniq belgilanmagan. Notariuslarning kasb etikasi qoidalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda Notariuslar palatasi rahbar organi tomonidan tasdiqlanishi va rasmiy saytlarda joylashtirilishi lozim.

Tadqiqotchining fikricha, notariusning litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turish uni hisobga qo'ygan adliya boshqarmalari huzuridagi malaka

komissiyasining qaroriga asosan amalga oshiriladi. Biroq, malaka komissiyasi tomonidan xususiy notariusga nisbatan jazo qo'llashda nojo'ya xatti-harakat sodir etilgan vaqt inobatga olinmaydi, chunki qonunchilikda buning muddati belgilanmagan. Bu esa notariuslarning 4-5 yil oldingi harakatlari uchun ham javobgarlikka tortilishi mumkinligini keltirib chiqaradi.

Muallif notariusning litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turish jarimaga almashtirilishi mumkin bo'lgan mexanizm kiritishni taklif qiladi. Bu notarius va u bilan mehnat shartnomasi tuzgan shaxslarning iqtisodiy ahvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotchi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning mulkiy javobgarligini ta'minlash masalasi muhimligini ta'kidlaydi. Qonundagi sug'urta summasining miqdori notariusning faoliyati natijasida yetkazilgan zararni to'liq qoplashga yetmasligi mumkin. Shu sababli, Notarial palata huzuridagi Kompensatsiya fondiga o'tkaziladigan summalarni ko'paytirish hamda fondning maqomini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotchining tahlilicha, Notarial palata huzuridagi Kompensatsiya fondi mexanizmi takomillashtirilishga muhtoj bo'lib, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning harakatlari natijasida yetkazilgan zararlarni to'liq qoplash funksiyasini bajara olmasligi mumkin. Muallif fikricha, "Notariat to'g'risida"gi qonunning 19-moddasidagi "jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning qasddan sodir etgan xatti-harakatlari natijasida zarar yetkazilganda Kompensatsiya fondi hisobidan qoplanmasligi" bo'yicha normani bekor qilish lozim.

Dissertantning fikricha, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun davlat javobgar bo'lmasligi bo'yicha normani qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Davlatning notariat instituti bo'yicha javobgarligini uzil-kesil olib tashlanishini bekor qilish lozim, chunki notariat instituti davlat nazorati ostidagi faoliyat bo'lib, uning harakatlari jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Tadqiqotchining aniqlashicha, "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 19¹-moddasida belgilangan notariusning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish mexanizmi samarasiz. Muallif Toshkent shahrida bir notariusning sug'urta summasi bazaviy hisoblash miqdorining ming baravari, ya'ni 375 mln so'mni tashkil qilganda, bugungi kunda Toshkent shahridagi o'rtacha 2-3 xonali xonadon narxi 600-700 mln so'mni tashkil qilishini, hovlilari uy-joy narxi esa 1 mlrd so'mdan boshlanishini keltirib o'tadi.

Muallifning ta'kidlashicha, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning litsenziyasi tugatilgandan keyin uning noqonuniy notarial harakatlari aniqlansa, yetkazilgan zararlarni qoplash mexanizmi mavjud emas. Bu muammoni hal qilish uchun notariusning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish o'rniga Notarial palata huzuridagi Kompensatsiya fondiga o'tkaziladigan summalarni ko'paytirish va fondning maqomini kuchaytirish kerak.

Dissertantning fikricha, Notarial palata huzuridagi Kompensatsiya fondi mablag'lari xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar tomonidan undirilgan to'lovlardan 2 foizni o'tkazish orqali shakllanishi, mablag'larni tasarruf

qilish esa Notarial palata bilan kelishgan holda adliya vaziri tomonidan normativ-huquqiy hujjat shaklida tasdiqlangan buyrug‘i asosida amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqotchining taklificha, Notarial palata tomonidan Kompensatsiya fondi mablag‘lari tushumi va sarfi bo‘yicha har yarim yilda OAVda adliya vazirligi tasdiqlagan shakl bo‘yicha hisobot e‘lon qilinishi kerak. Bu fond faoliyatining shaffofligini ta‘minlaydi.

Muallifning tahlilicha, “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 15² va 15³-moddalarida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius litsenziyasining amal qilishini to‘xtatib turish hamda tugatish asoslarida “Notariusning kasb etikasi qoidalari” talablari buzilishi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, bu qoidalarining qonuniy statusi belgilanmagan. Tadqiqotchi notariuslarning kasb etikasi qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda Notariuslar palatasi rahbar organi tomonidan tasdiqlanishi va vazirlik hamda palata saytlarida to‘liq joylashtirilishi lozimligini ta‘kidlaydi.

Dissertantning o‘rganishicha, notariat to‘g‘risidagi qonunchilik va notariusning kasb etikasi qoidalari talablari buzilganligidan so‘ng 3 yil o‘tgan bo‘lsa, agar bu holat qo‘pol ravishda sodir qilingan qoidabuzarlik bo‘lmasa hamda yetkazilgan zarar aybdor tomonidan qoplansa, notarius litsenziyasining amal qilishini to‘xtatib turish bilan bog‘liq jazo qo‘llanilishi mumkin emasligi bo‘yicha norma o‘rnatish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotchi ta‘kidlashicha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomda belgilangan ayrim qoidabuzarliklar uchun litsenziyani to‘xtatib turish yoki tugatish bo‘yicha normalarni bekor qilish lozim. Masalan, “Notarius tomonidan fuqarolar va xodimlarning sha‘ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi nojo‘ya hatti-harakatlar sodir etilganligi” kabi qoidabuzarliklar Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa qonunchilikda javobgarlik belgilanganligi sababli, litsenziyani to‘xtatishga bog‘lash shart emas.

Muallifning xulosasiga ko‘ra, o‘tkazilgan so‘rovda “Notariusni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikda qanday asosiy muammolarni ko‘rasiz?” degan savolga respondentlarning **45,8 foizi** “Normativ-huquqiy hujjatlardagi o‘zaro ziddiyat va noaniqliklar” deb, **15,1 foizi** “Standartlarning shaffofligi yetarli emas” deb, **30,8 foizi** “Zamonaviy talablarning yetishmasligi” deb, **5,2 foizi** esa “Nazoratning yetarli emasligi” deb javob berganligi, notariat qonunchiligidagi muammolarning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dissertantning yuqoridagi tahlillaridan xulosa qilib, tadqiqotchi notariat institutining faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qonunchilikka bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozimligini, xususan “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 19, 8¹, 15², 15³, 15⁵ va 22⁷-moddalariga o‘zgartirishlar kiritish hamda unga yangi 15⁵-modda (Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga jarima qo‘llash) qo‘shishni taklif qiladi.

Tadqiqotchining ko‘rsatishicha, notarial harakatlarni amalga oshirishda ortiqcha ma‘muriy-byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish lozim. Muallif fikricha, ko‘chmas mulk va avtomototransport vositalarini tasarruf qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan bitimlarni tasdiqlashda kommunal xizmatlardan qarzdorlikni tekshirish

talabi asossiz bo‘lib, uni bekor qilish kerak.

Dissertantning taklificha, “Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi”ning 27-bandi uchinchi xatboshisi takomillashtirilib, kommunal tashkilotlardan qarzdorlik miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridan oshmagan holda bitimda ularni to‘lash majburiyatini mulkni sotib oluvchiga yuklash imkoniyati nazarda tutilishi kerak.

Muallifning aniqlashicha, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunda jismoniy shaxslarga qarz shartnomalarini notarial tasdiqlash orqali chet el valyutasida o‘zaro qarz berish va qaytarib olish imkoniyati aniq belgilanmagan. Tadqiqotchi ushbu qonunning 17-moddasiga qo‘shimcha kiritib, bu huquqni aniq belgilab qo‘yishni taklif qiladi.

Tadqiqotchining fikricha, “Notariat to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasi ikkinchi qismida notarius litsenziya olgandan so‘ng kamida ikki yil shu notarial okrugda ishlash majburiyati Notarial palata raisi va hududiy boshqarmalar boshliqlariga istisno sifatida qo‘llanmasligi lozim.

Dissertatsiyaning **“Notarial faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida notarial idoralarda davlat xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish istiqbollari, Notarial palatani tashkil etish va faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari haqida fikr yuritadi.

Tadqiqotchining fikricha, notarial idoralar huquqiy barqarorlikni ta‘minlash va jismoniy hamda yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Muallif ta‘kidlashicha, notariuslar faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirishda jarayonlarni raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishini jadallashtirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar sohani sezilarli darajada takomillashtirishi mumkin.

Dissertantning aniqlashicha, notarial harakatlarning ishonchli bo‘lishiga bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlar taraflar tomonidan barmoq izlarini olish yo‘li bilan tasdiqlanishi muhim ahamiyatga ega. Biroq, bugungi kunda notarial harakatlarni tasdiqlashda tomonlarning barmoq izlari olinsa-da, ular Personallashtirish agentligining pasport va ID kartalar berishda olinadigan barmoq izlari bilan to‘liq solishtirish imkoni mavjud emas. Muallif notarial harakatlarda olingan barmoq izlarini Personallashtirish agentligining axborot tizimida shaxsning indentifikatsiyasiga to‘liq aniqlik kiritish lozimligini taklif qiladi.

Tadqiqotchining ko‘rsatishicha, meros ishlarini ko‘rishda davlat boji miqdorlari kam belgilanganligi notariuslar tomonidan meros bilan bog‘liq notarial harakatlarni rasmiylashtirishda noqonuniy ravishda pul mablag‘larini olish holatlari ko‘p uchrab turadi. Muallif fikricha, davlat bojidagi to‘lovlaridagi imtiyozlarni bekor qilish maqsadga muvofiq, chunki bu kabi faoliyat turlari tadbirkorlik faoliyati bo‘lib, insonning yashab turgan uy-joyi kabi birlamchi ehtiyoji bilan bog‘liq emas.

Dissertantning ta‘kidlashicha, notarial harakatlarni okruglar bo‘yicha bo‘lishda ham qator mulohazali masalalar mavjud. Amaldagi qonunga ko‘ra, notariusning notarial harakatni belgilangan faoliyat hududidan tashqarida amalga oshirishi bu harakatni haqiqiy emas, deb topishga asos bo‘lmaydi. Tadqiqotchi notariat institutining kafolatini yanada oshirish maqsadida notariusning notarial harakatni belgilangan faoliyat hududidan tashqarida amalga oshirishi bu harakatni nafaqat

haqiqiy emas, balki bekor qilinishiga ham asos bo'lmashligini taklif qiladi.

Muallifning fikricha, notariusning faoliyat ko'rsatish hududi (notarial okrug) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvofiq belgilanadi. Tadqiqotchi notarial okrugni tumanlararo etib belgilash lozimligini, shuningdek notarial harakatlarni mulk joylashgan joy hamda notarial harakatlarni amalga oshiruvchi shaxsning doimiy yashash joyidagi okrugdagi, shuningdek tegishli ravishda mulk joylashgan joy yoki doimiy yashash joyidagi notarial okrugga yondosh okrugdagi notarial idorada amalga oshirilishini taklif etadi.

